

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“Iqtisodiyot” fakul’teti

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası

Ro'yxatga olindi

N^o 150

2022 yil “29” 08

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
dofs. O.N. Bozorov

2022 yil “ ”

“TIJORAT VA SERVIS LOGISTIKASI”

FAN SILLABUSI

Bilim sohasi:

400000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohasi:

410000 - Biznes va boshqaruv

Ta'lim yo'nalishi:

60411700 - Logistika (agrologistika)

QARSHI – 2022 yil

Ushbu fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (2022 yil 28 iyundagi № 11-sonli bayonnoma) kengashida tasdiqlangan fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:

Alimova M.Yu

- "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasining assistenti

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasining 2022 yil "22" avgustdagi 01-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida 2022 yil "24 06" son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan. Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 24.06.2022 dagi 1 son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i

"Iqtisodiyot" fakulteti uslubiy komissiyasi raisi:

"Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasining mudiri:

dots. Sh.R. Turdiyev

dots. A.B. Qurbonov

Ud.d.-prof. S.N. Xamrayeva

FAN SILLABUSI

QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

"TIJORAT VA SERVIS LOGISTIKASI" fani sillabusi

Fan (modul) kodi (TJSLOGM2411)	O'quv yili 2022-2023	Semestr 3,4	ECTS krediti 10
Fan (modul) turi Majburiy fan	Ta'lim tili o'zbek		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Haftalik dars soati 1-semestr 4 soat 2-semestr 6 soat Jami yuklama
Raqamli iqtisodiyot	60	90	150

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	F.I.SH.	Innovatsion iqtisodiyot
O'qituvchilar	Alimova Munisa	Telefon nomeri
Ma'ruzachi	Yulchiyyevna	+998998441355
Amaliy mashg'ulot	Alimova Munisa	e-mail
Laboratoriya	Yulchiyyevna	munisaalimova8@gmail.com
mashg'ulotlari	Alimova Munisa	munisaalimova8@gmail.com
	Yulchiyyevna	munisaalimova8@gmail.com

1. Fanning mazmuni

«Tijorat va servis logistikasi» fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga «Tijorat va servis logistikasi»ning kelib chiqishi, uning rivojlanish bosqichlari, respublikamizda tijorat va servis logistikasining hozirgi xolati va uning muammolari, servis logistikasi sohasida xalqaro yuk tashuvchilariga kursatlayotgan xizmatlarning darajasi yuqori darajada emasligi va ushbu sohani muhimligini etkazish, tijorat logistikasida tovarlarga sotishdan oldingi, sotish davridagi va sotishdan keyingi bosqichlarini muhimligini yoritib berish, shu bilan bir qatorda tijorat logistikasi tizimlari modellashtirish, xalqaro miqyosda tovarlar tashishda: tovarning sifatini buzmasdan va dastlabki holatida istemolchilarga yetkazib berish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotni xududiy tashkil etish qonuniyatlarini, prinsiplarini, omillari to'g'risida, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

«Tijorat va servis logistikasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- «Tijorat va servis logistikasi» jarayonlarini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslarini;
- logistik jarayonlar modellari;
- tovar aylanishi samaradorligini oshirish va takomillashtirish uslubiyatlari;
- xalqaro va ichki me'yoriy huquqiy tartibga rioya etish;
- xalqaro savdoda servis xizmatini shakllanishi va iste'molchilarga servis xizmat ko'rsatish strategiyalarini;
- logistik kompaniyalar faoliyatini prognozlash haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- tijorat logistikasida marketingning zamonaviy konsepsiyasi asosida boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish;
- logistika tizimini tahlil qilish usullarini qo'llay olish;
- ishbiarmonlik xavfini hisobga olgan holda biznes faoliyat yuritish chegarasini aniqlash;
- zamonaviy tashuvlarning analitik usullarini ishlatish;
- bozor va raqobat muhitini tadqiq etish, logistik faoliyatini prognozlash usullaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- logistik kompaniyalar faoliyatini prognozlash va tahlilni amalga oshirish usullarini qo'llay olish, logistik tizimlarni tahlil qilish mexanizmlari va xalqaro yuk tashuvda sug'urta va yo'qotish xavfini hisobga olish va ularning natijalaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning vazifasi - Fan o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ishlab chiqaruvchilar va biznes sub'ektlari o'rtasida uzviy aloqa bog'lash;
 - tijorat logistikasining xozirgi xolatini tahlil qilish yo'llari va usullarini bilish;
 - makbul transport yulaklarini tanlash va istiqbollashni amalga oshirish yo'llarini bilish;
 - tijorat logistikasida xalqaro transport kompaniyalari va bo'lxona idoralari o'rtasini tahlil qilish;
 - servis logistikasida bozor strategiyasini tanlash bo'yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o'rganadi.
- Shuningdek, «Tijorat va servis logistikasi» fani asosiy fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturi interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;

IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

N ^o	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1.	Tijorat logistikasining vazifasi va funksiyalari	Tijorat logistikasining vazifalari va tamoyillari. Tijorat logistikasining asosiy funksiyalari. Logistikaning umumiy konsepsiyasi, uning mohiyati va uning komponentlari. Logistik operatsiyalar va logistik funksiyalar, ularni tasnifi va tavsifi. Tijorat logistikasini tashkil qilishning asosiy vazifalari va yondashuvlari. Tijorat sohasida logistikani funksiyalarining tavsifi va tasniflash tamoyillari. Tijorat logistikasining zamonaviy konsepsiyasi.	2
2.	Tijorat logistikasining rivojlanishi omillari va tendensiyalari	Tijorat logistikasini rivojlanishining ob'yektiv sabablari va asosiy shartlari. Tijorat logistikasini intensiv rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Iqtisodiyotda logistikada foydalanishning iqtisodiy samarasi. Iqtisodiyotni globallashuvi davrida tijorat logistikasini rivojlanishining asosiy tendensiyalari. Informatsion logistikaning mohiyati va vazifalari. Tijorat sohasida logistik informatsion tizimining umumiy tuzilishi va funksiyalari. Informatsion okimlarning ulchov birligi va tasniflash tamoyillari. Informatsion logistik tizimlarni tuzilishida zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish.	2
3.	Tijorat sohasida informatsion logistika	Tijorat sohasida xaridlar logistikasini mohiyati va asosiy vazifalari. Xaridlar logistikasining asosiy funksiyalari. Moddiy resurslarni xarid qilishning asosiy usullari va ularni taqqoslama tavsifi. Tijorat logistikasi nuqta nazaridan yetkazib beruvchilarni tanlab olish.	2
4.	Xaridlar logistikasi mexanizmi	Logistikada taqsimlash kanallari: turlari, darajasi, ishtirokchilari. Logistik vositachilik. Taqsimot kanallarida logistik vositachilardan foydalanish. Logistik zanjir, uning logistik kanaplar bilan bog'liqligi.	2
5.	Tijorat logistikasida tovarlar xarakati tizimi	Logistik tizimda zaxiralarni urni va ularni tasniflash. Tijorat sohasi logistik tizimida tovar-moddiy zaxiralarning asosiy kategoriyalari. Tijorat korxonaning zaxiralarni boshqarish. Zaxiralarni boshqarish jarayonlarini taqsimlashning boshqa funksiyalari bilan o'zaro aloqadorligi.	2
6.	Tijorat logistikasida zaxiralarni boshqarish	Logistik tizimda transportning vazifalari va funksiyalari. Tijorat tashkiloti tomonidan yuk tashuvchini tanlashning asosiy omillari. Transport vositalarining zamonaviy turlari va tanlash mezonlari.	4
7.	Tijorat sohasida transport logistikasi	Tijorat logistikasida omborxonaning roli va axamiyati. Omborxonadagi logistik jarayon: tuzilishi, xususiyati.	4
8.	Tijorat sohasida omborxona		

logistikasi	Tijorat sohasida omborxonada saqlash tizimini tanlash bosqichlari va ularni optimallashtirish yo'llari.	2
9.	Tijorat tashkilotining strategik rejalashtirishida logistikaning roli. Tijorat korxonasida logistika xizmati strategiyasi. Tijorat logistikasida prognozlashtirish muammolari.	4
10.	Servisologiya - zamonaviy xayot tarzi xaqidagi fan. Inson ehtiyojlari. Ehtiyojlar nazariyasining asosiy tushunchalari. Servis logistikasidagi asosiy tushunchasi.	2
11.	Logistikani rivojlantirishning tarixi. Iqtisodiyotda logistikani rivojlantirishning bosqichlari. Logistikaning maqsad va vazifalari. Logistika	4
12.	Logistikadagi asosiy tushunchalar	4
13.	Servis faoliyati - iqtisodiyotning tashkiliy qismi sifatida	2
14.	Xizmat ko'rsatish faoliyati va odamlarining yashash sharoitlari	4
15.	Servis - individual xizmat ko'rsatish tizimi sifatida	4
16.	Servis logistikasining xususiyatlari	4
17.	Tijorat logistikasining huquqiy asoslari	4
18.	Tijorat logistikasining axborot ta'minoti	4

	Axborot, axborot berish - informatsiya (lot.) tushintirish, aniqlashtirish, ma'lum qilishdir. Shu ma'noda qo'llaniluvchi so'zlar - yoritish, xabardor qilish, nimadir haqida ma'lumot berish. Matematika va kibernetikada informatsiya - noaniqlikning hal etib borilish miqdoriy o'lchovi (entropiya), tizimni tashkillashtirish me'yorida.	4
19.	Kibernetika va logistika tektologik fanlar sirasiga kiradi. Umumiy tashkiliylikka oid fanda: "informatsiya - muayyan tizimning atrof muhit, boshqa tizim yoki o'zining turli o'zgarish davrlarida tashkiliylikka solishtirgandagi tashkiliylik darajasidir, ya'ni muayyan tizim hamda tashqi muhit yoki boshqa tizim o'rtasidagi tafovut yoki shunchaki shu tizimning ikki turlicha tektologik holatlarida o'rtasidagi farqdir. Axborot o'z o'zidan mavjud bo'la olmaydi - u moddiy.	4
20.	Moliyaviy logistika oqimlari tushunchasi, mohiyati va tasnifi. Moliyaviy oqimlarni boshqarish. Raqobatbardosh iqtisodiy oqimlar va ularni logistizatsiyalash. Logistika iqtisodiy-matematik modellashirish.	4
	Maqsadli amalga oshirishda ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi va olingan sifati va miqdoriy ko'rsatkichlarni. Ularning umumiy tarkibida ular iqtisodiy samara o'lchovlarini. <i>Samarat</i> (effekt - frants.). Faoliyat o'lchov kategoriyasi sifatida qo'llanilish. Ta'minot zanjiri iqtisodiy rivojlanishining samaradorligi uning rivojlanish jarayonida ishlashining o'lchovidir. Logistika-tashkiliy shakllarning samaradorligini baholashning o'ziga xos xususiyati.	60
	Jami:	

Amaliy mashg'ulot

No	Mavzular	soat
1.	Tijorat logistikasining vazifasi va funksiyalari	4
2.	Tijorat logistikasining rivojlanishi omillari va tendensiyalari	4
3.	Tijorat sohasida informatsion logistika	4
4.	Xaridlar logistikasi mexanizmi	4
5.	Tijorat logistikasida tovarlar xarakati tizimi	4
6.	Tijorat logistikasida zaxiralarni boshqarish	4
7.	Tijorat sohasida transport logistikasi	4
8.	Tijorat sohasida omborxona logistikasi	4
9.	Logistik boshqaruvi tashkil etish	4

10.	"Servis logistika" si fanining mohiyati va predmeti	4
11.	Logistikaning umumiy tavsifi	4
12.	Logistikaning asosiy tushunchalari	4
13.	Servis faoliyati-iqtisodiyotning tashkiliy qismi sifatida	4
14.	Xizmat ko'rsatish faoliyati va odamlarning yashash sharoitlari	4
15.	Servis-individual xizmat ko'rsatish tizimi sifatida	4
16.	Servis logistikasining xususiyatlari	4
17.	Tijorat logistikasining huquqiy asoslari	6
18.	Tijorat logistikasining axborot ta'minoti	6
19.	Moliyaviy logistika	4
20.	Tijorat logistikasida natijalar ko'rsatkichlari. Yetkazib berish tizimlari samaradorligini baholash	6
21.	Tijorat logistikasining vazifasi va funksiyalari	4
Jami:		90

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

1. Tijorat logistikasi tizimlari: maqsadi va tashkil etish tamoyillari
2. Yetkazib berish tizimidagi logistik xo'jalik aloqalari
3. Yuklarni sug'urtalash
4. Servis logistikasi tushunchasi uning mohiyati va maqsadi
5. Iqtisodiy logistikada tijorat va servis tushunchasi
6. Servis logistikasida omborlarning roli
7. Tijorat va servis logistikasini tizimli boshqarish va strategik rejalashtirish
8. Tijorat logistika tizimlarini boshqarish
9. Ta'minot (tijorat) tizimida strategik rejalashtirish
10. Tijorat logistikasi turlari va uning faoliyat sohssi
11. Logistik ta'minotni tijorat logistikasidagi o'rni
12. Ishlab chiqarish va xarid logistikasi

13. Tadbirdorlik faoliyatida tijorat va servis logistikasining amalga oshirish xususiyatlari
14. Xizmat ko'rsatuvchilarning tashkiliy tizimi
15. Tovarlarini iste'molga tayyorlash va omborxonaga joylashtirishda logistik xizmatlar
16. Tijorat va servis logistikasi qo'llanilish xususiyatlari
17. Tijorat logistikasining xuquqiy asoslari

18. Tijorat logistikasining axborot ta'minoti
 19. Tijorat logistikasida natijalar ko'rsatkichlari
 20. Yetkazib berish tizimlari samaradorligini baholash
 21. Tijorat logistikasida moddiy oqimlarini bo'xona chegarasidan olib o'tish tartibi.
 22. Tijorat logistikasida tovarlarni bo'xona chegaralaridan olib o'tishda bo'xona rejimlarining ahamiyati
 23. Tijorat va servis logistikasida tovarlar ekspertizasi
 24. Tijorat logistikasida tovarlar ekspertizasi tushunchasi va maqsadi
 25. Tijorat logistikasida tovarlar ekspertizasida bo'xona organlarining tutgan o'rnini
 26. Logistik kompaniyalarning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish va istiqbollashni amalga oshirish bosqichlari
 27. Tashish jarayonlarining axborotlar bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari
 28. Logistik kompaniyalar va optimal yo'nalishlarni tahlil qilish va istiqbollashni ahamiyati
 29. Logistik kompaniyalarni faoliyatini istiqbollashni modelarni yaratish
 30. Tarmoqli grafiklar usuli va uni marketing faoliyatida qo'llashning xususiyatlari
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Logistikaning rivojlanish tarixi va uslubiyati
2. Logistikaning tushunchalari va predmeti
3. Logistikaning funktsional majmuasi. Ta'minot logistikasi
4. Taqsimot logistikasini boshqarish
5. Omborlar logistikasi va ularga qo'yiladigan talablar
6. Ta'minot zanjirida zahiralarni boshqarish
7. Logistikada axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari
8. Logistik vositachilarni tanlashning asoslari
9. Transport logistikasi majmuasi. Logistik tizimlarda tashishni tashkil etish
10. Yuklarni tashishga bo'lgan buyurtmaning optimal miqdorini aniqlash
11. Yuklarni tashish jarayonlari va texnologiyalarini optimallashtirish masalalari va ularning echimlari
12. Yuk va yo'lovchilar tashish xizmati logistik operatsiyalari va zvenolarning texnologik jarayonlari hamda ko'rsatkichlari
13. Yuk oqimlarini aniq muddatda etkazib berishni ishonchli rejalashtirish
14. Iste'molchilarga avtomobil transporti xizmati ko'rsatish tizimi va jarayonlari
15. Yuk oqimlarini jo'natish, qabul qilish jarayonlari va ko'rsatkichlarini modellash
16. Tashish xizmati ko'rsatish jarayonlarini boshqarish moddellari
17. Yuk oqimlarini marshrutlashtirish moddellari va uslublari
18. Yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishning logistik tizimini boshqarish
19. Logistik faoliyatini ma'muriy boshqaruv masalalari

20. Logistikaning zamonaviy masalalari va O'zbekistonda ularni joriy etish imkoniyatining istiqbolari

VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiriladi.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi O'QMTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida:

-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

-talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

-talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

-talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Logistics and transportation security/ A Strategic, Tactical, and Operational Guide to Resilience/ Maria G.Burns. 2016.
2. A.M.Gadjinskiy. Logistika. Uchebnik. M.: Pri.zd.komb.VINITI. 1999 g.
3. I.O.Ulashev. Logistika asoslari. Ma'ruzalarni tuzatish. Navoiy. 2011 y.
4. E.I.Kusenko, L.YU.Berejnaya. Logistika. Praktikum. Ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriata. M.: Yurayt. 2017 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risidagi Qonuni. www.lex.uz
2. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. - T.: O'zbekiston, 2012. - 36 b.

3. Kotler F. Osnovy marketinga. Uchebnoe posobie. -M.: Vilyams, 2010. - 656 s.
4. Mejdunarodnye konvensii i soglasheniya, reguliruyemie transportni-ekspeditsionnyy deyatel'nost. Sbor. Nor. Aktiv. Tashkent -«Mehnat» 2000

Axborot manbalari

1. www.mfu.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
2. www.eki.uz - O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi sayti.
3. www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.
4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
5. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.